

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

8-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 8 (5) - 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Baxranov Sherzod

O‘ZBEKISTON SSRDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLARNI YECHIMINI TOPISHDA BUTUNITTIFOQ PAXTACHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI O‘RNI	10-16
---	-------

Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna

MILLIY HUNARMANDCHILIK: USTA-SHOGIRD MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSION JARAYONLARI	17-21
--	-------

Sattarova Marhabo Mamatovna

O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY JARAYONLARIGA TA‘SIRI	22-30
--	-------

Raxmatov Mirjon

BUXORO VILOYATIDA BOJXONA TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN	31-38
---	-------

To‘xtasinov Mira‘zam

SOMONIYLAR DAVLATI: HARBIY ISLOHOTLAR VA BOSHQARUV STRATEGIYALARI	39-42
---	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Kuliboyev Azamat Shonazarovich

DAVLAT SEKTORIDA HISOBNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	43-48
---	-------

Azgarov Abdumutalib

INTERNET-MARKETINGNING UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA QO‘LLANILISHI HOLATI TAHLILI	49-56
---	-------

Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda

IMPACT OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT CLIMATE: INTERNATIONAL EXPERIENCE	57-60
--	-------

Otabekov Javdod

GO‘SHT YETISHTIRISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA “AQLLI QISHLOQ XO‘JALIGI” IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘NALISHLARI	61-68
--	-------

Navruzov Dilshod Ismatullayevich

AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA‘MINLASH	69-74
--	-------

Uralov Temur Boxodir o‘g‘li

ENERGETIKA KORXONALARI AUDITI NATIJALARINI HUJJATLASHTIRISH VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	75-81
--	-------

Samandarov Og‘abek

ENERGIYA XAVFINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING AHAMIYATI	82-86
---	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

- Yuldashev Rustam Daniyrovich*
YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA FALSAFIY TARBIYANING JAMIYAT
RIVOJLANISHIDAGI O'RNI 87-93
- Adilov Zafar Yunusovich*
ATROF-MUHIT TA'LIMI VA EKOLOGIK ONG: BARQAROR KELAJAK SARI YO'L 94-98
- Berdikulova Surayyo Aslamovna*
IJTIMOIY ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI ME'YORLARINING SHAKLLANISHI 99-104
- Taniqulov Jonibek Ashirkulovich*
ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATI SHAROITLARIDA TA'LIM MADANIYATI 105-113
- Yarbaev Xasan Xazratqulovich*
JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASH:
MILLIY VA GLOBAL XAVFSIZLIK KONTEKSTIDA TAHLIL 114-118
- Maxsudjonov Kamronjon*
MA'RIFIY TASHKILOTLAR TIZIMINING SHAXS MA'NAVIY MADANIYATIGA
TA'SIRINING IJTIMOY-FALSAFIY AHAMIYATI 119-123
- Qo'chqarov Oybek G'ulomovich*
INDUSTRIYA 4.0 DAVRIDA TA'LIM VA KASB-HUNAR INTEGRATSIYASI:
IJTIMOIY-FALSAFIY YONDASHUV 124-128
- Otaqulov Elyor Madiyrovich*
EKOLOGIK KONFLIKTNING FALSAFIY MOHIYATI 129-136
- Mamatqulov Rashid Pazilbekovich*
TUSHUNCHA USTIDA MANTIQUIY AMALLAR 137-141

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

- Niyazov Ravshan Turakulovich*
SKOTT TUROVNING "AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI" ROMANIDA DIALOGLAR
XUSUSIYATI VA PERSONAJLAR XARAKTERISTIKASI 142-148
- Yunusova Xilola Ravshan qizi*
KONSEPTUAL INTEGRALLASHUV: O'ZBEK TILIDAGI
"V+(I)B YURA TURMOQ" ANALITIK ASPEKTUAL QURILMA TAHLILI MISOLIDA 149-154
- Absalamova Gulmira Sharifovna*
LINGVOSEMANTIK YONDASHUVDA ADABIY-LUG'AVIY TERMINLARNING
NAZARIY TAHLILI: KRIS BOLDIK LUG'ATI ASOSIDA 155-158
- Dadajanova Aziza Karimullayevna*
THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN TRANSLATION:
A CROSS-CULTURAL PERSPECTIVE 159-170
- Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna*
YAPON XALQ ERTAGIDA TURFA VARIANTLILIK HAMDA ERTAKDAGI
RAMZIY MA'NOLAR: "MOMOTARO" (SHAFTOLIDAN TUG'ILGAN BOLA)
ERTAGI MISOLIDA 171-175
- Babajanova Iqbol Salomaddinovna*
SHAXS OTLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI 176-180

<i>To'xtayeva Sarvinoz</i> DUNYO VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ETNONIMLARNING O'RGANILISHI	181-184
<i>Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi</i> TED XYUZ VA IBRAYIM YUSUPOV SHE'RIYATIDA POETIK ILHOM MANBALARI QIYOSI	185-189
<i>Ismatullayeva Nargiza, Qosimova Malika Xurshidovna</i> CHALLENGES AND INNOVATIONS IN SIMULTANEOUS INTERPRETER TRAINING IN CHINESE UNIVERSITIES: THE ROLE OF TECHNOLOGY IN MODERN PEDAGOGY	190-195

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>O'rinboyev Rustamjon</i> A SOCIO-LEGAL ANALYSIS OF THE EVERYDAY TRANSNATIONAL LIVES OF UZBEK MIGRANTS IN RUSSIA	196-206
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> YER NIZOLARINI SUDLARDA KO'RISH TARTIBI	207-212
<i>G'ofurova Dilafuz</i> AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HAYOTGA QARSHI JINOYATLARNING KRIMINALISTIK TAVSIFI: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR	213-218
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> PROKUROR TAQDIMNOMASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI	219-223
<i>Juraeva Asal</i> OBSTACLES IN ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN	224-228
<i>Ходжаева Шурин</i> ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ОБЪЁМ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАВОСУБЪЕКТНОСТИ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ООН В СФЕРЕ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ	229-239
<i>Imomniyozov Doniyorbek</i> SUN'IY INTELLEKT SOHASIDA ALGORITMIK JAVOVBGARLIK: IJTIMOIY, HUQUQIY VA TASHKILY YONDASHUVLAR	240-250
<i>Asadov Shahridin Faxriddinovich</i> XIZMATLAR TUSHUNCHASINING HUQUQIY VA IQTISODIY TAHLILI: SIVILISTIK DOKTRINA NUQTAI NAZARIDAN	251-254
<i>Суннатиллаева Сарвиноз</i> АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕГУЛИРОВАНИЯ АНТИДЕМПИНГОВЫХ И КОМПЕНСАЦИОННЫХ ПОШЛИН В РАМКАХ ВТО И УЗБЕКИСТАНА	255-262
<i>Anarbayev Eldor</i> KONSESSİYALARNI XORIJIY DAVLATLARDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH	263-269
<i>Ibrohimov Azimjon</i> KORPORATIV IMKONIYATLAR DOKTRINASI: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY QONUNCHILIK	270-278

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Qurbonov G'ulomjon G'afurovich</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING METODLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI	279-285
--	---------

<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i> TRANSFORMATIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING KOMPETENTLIK YONDASHUVI BILAN BOG'LIQLIGI	286-293
<i>Muxammadjonov Muslimbek</i> OLIY TA'LIMDA TALABA MARKAZLI YONDASHUVNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI ...	294-302
<i>Khabibullaeva Dilshoda</i> FUNCTIONS OF CODE-SWITCHING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING CLASSROOMS IN UZBEKISTAN	303-309
<i>Berdiyeva Nilufar Berdiyev qizi</i> INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI	310-314
<i>Hamidov Sherali Shirinovich</i> BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY TA'LIM TALABLARI VA YO'NALISHLARI	315-320
<i>Sattoriy Shohruh</i> RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH MEXANIZMLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	321-325
<i>Tadjiyeva Nodira Yusupjanovna</i> TALABALARDA MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATSIYA JARAYONINING AHAMIYATI	326-331
<i>Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna</i> "NURLI MASKAN" TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOY HAYOTGA TAYYORLASH BO'YICHA KORREKSION-PEDAGOGIK ISHLARNING TASHKIL ETILISHINI O'RGANISH VA NATIJALAR TAHLILI	332-336
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> TO THE CONTENT OF PRACTICAL CLASSES ON THE MODULE "DECISION SUPPORT SYSTEMS" OF THE ACADEMIC DISCIPLINE "INFORMATION TECHNOLOGIES IN MANAGEMENT	337-341

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

ENVIRONMENTAL EDUCATION AND ECOLOGICAL AWARENESS: THE ROAD TO A SUSTAINABLE FUTURE

Adilov Zafar Yunusovich

Head of the Department of "General Professional Sciences" of Mamun University,
Doctor of Philosophy in Philosophy

Abstract. This article examines the causes and consequences of environmental problems and their manifestations in both local and global contexts. It emphasizes the vital role of environmental education in fostering ecological awareness and literacy. The study discusses how environmental education helps individuals adopt ecocentric values, promote positive behavioral changes, and make informed decisions to address environmental crises.

Keywords: ecological awareness, environmental education, sustainable development, environmental problems, environmental literacy.

ATROF-MUHIT TA'LIMI VA EKOLOGIK ONG: BARQAROR KELAJAK SARI YO'L

Adilov Zafar Yunusovich

Ma'mun universiteti "Umumkasbiy fanlar" kafedrasini mudiri,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori
E-mail: adilovzafar@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada atrof-muhit muammolarining sabablari va oqibatlari hamda ularning mahalliy va global kontekstda namoyon bo'lishi tahlil qilinadi. Ekologik ong va savodxonlikni shakllantirishda atrof-muhit ta'limining muhim roli alohida ta'kidlanadi. Tadqiqotda ekologik ta'lim orqali shaxslar ekosentrik qadriyatlarini qabul qilishi, ijobiy xulq-atvor o'zgarishlarini rivojlantirishi va ekologik inqirozlarga qarshi ongli qaror qabul qilishi mumkinligi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: ekologik ong, atrof-muhit ta'limi, barqaror rivojlanish, atrof-muhit muammolari, ekologik savodxonlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N14>

Kirish. Atrof-muhit muammolarining yuzaga kelishi, rivojlanishi va odamlar tomonidan qanday qabul qilinishi-vaqt, makon va madaniyatga bog'liq holda o'zgarib boradi. Bu holat esa, turli geografik hududlarda yashovchi jamiyatlarning ijtimoiy-madaniy tafovutlari, ilmiy, axloqiy, iqtisodiy va madaniy normalari bilan bog'liq holda ekologik tahdidlarni turlicha darajada qabul qilishlariga va ularni har xil yondashuvlar orqali baholashlariga olib keladi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, global ekologik tahdidlar hech bir millat, din, irq yoki davlatni ajratmaydi.

Adabiyotlar tahlili. Dunyoning turli mintaqalarida ekologik muammolar har xil shakl va dinamikaga ega. Ba'zilar sabab-oqibat aloqasida vujudga kelgan bo'lsa, ayrimlari tashqi omillardan mustaqil holda, kutilmaganda yuzaga kelishi mumkin. Bugungi kunda keng tarqalgan atrof-muhit muammolariga quyidagilar kiradi: ifloslanish, eroziya, qurg'oqchilik,

oʻrmonlarning yoʻqolishi, choʻllanish, kislota yomgʻirlari, flora va faunaning kamayishi, global isish, iqlim oʻzgarishi hamda chiqindilarni boshqarish. Ushbu muammolar, aholi soni, taʼlim darajasi, geografik joylashuv, iqlim, oʻsimlik qoplami, tabiiy resurslar, sanoat va qishloq xoʻjaligi faoliyatlari, energiya siyosati va har bir mamlakatning atrof-muhitni muhofaza qilish siyosatidan taʼsirlanadi. Qadimgi davrlardagi ekologik muammolar bugungi kunda duch kelinayotganlardan farq qiladi. Aholining keskin koʻpayishi va bular bilan bogʻliq boʻlgan beqaror isteʼmol modeli tabiiy resurslarning tugab ketish xavfini kuchaytiruvchi asosiy omillardan biridir.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, agar aholini nazoratga olmasa, ishlab chiqarish jarayonlari barqarorlik tamoyillariga asoslanmasa, isteʼmol odatlari oʻzgartirilmasa va ekologik iz kamaytirilmasa-mavjud tabiiy resurslarga boʻlgan ehtiyojni qondirish mumkin boʻlmaydi. Muqobil manbalarni aniqlay olmaslik va aholining ehtiyojlarini taʼminlay olmaslik ekologik muammolar, oziqlanish va sogʻliq bilan bogʻliq jiddiy inqirozlarga olib keladi. Ekologik muammolarning ildizi insonning tabiat bilan notoʻgʻri munosabatida yotadi. Bu esa insonning dunyo va tabiatga nisbatan notoʻgʻri qarashlaridan kelib chiqadi. Shunday ekan, ekologik muammolarni hal qilishda insonlarning tabiatga, hayotga va qadriyat va eʼtiqodlarga boʻlgan qarashlarini oʻzgartirish zarur.

Bugungi eng jiddiy ekologik muammolar bevosita inson faoliyati oqibatida yuzaga kelmoqda. Masalan, fosil yoqilgʻi ishlatilishi atmosferadagi karbon darajasining ortishiga olib kelib, global iqlim oʻzgarishini keltirib chiqarmoqda. Bu holat ekotizimlar, aholi soni, infratuzilma va inson salomatligiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Tabiiy muvozanatni tashkil etuvchi zanjirning biror boʻgʻini uzilsa, butun zanjir izdan chiqadi va ekologik inqirozga sabab boʻladi. Bunday muammolarga: oʻrmonlarning qisqarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, choʻllanish, ozon qatlamining yemirilishi, zaharli chiqindilar, iqlim oʻzgarishi va aholi sonining oʻsishi kiradi. Aholi soni, ishlab chiqarish bosimi va isteʼmolning beqarorligi global ekologik muammolarni milliy muammolardan ajratib turadi.

OECD maʼlumotlariga koʻra, inson faoliyatlari orqali yuzaga kelgan issiqxona gazlari iqlim tizimining buzilishiga olib kelmoqda. Bu esa ekotizimlar, suv resurslari, inson salomatligi va oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Ayniqsa, issiq havo hodisalari toʻgʻrisida koʻpayib, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarmoqda. Tabiiy yashash joylarining qishloq xoʻjaligi yerlariga aylanishi quruqlikdagi biologik xilma-xillikni kamaytirgan, haddan tashqari ovlanish esa dengiz hayotiga tahdid solmoqda.

Koʻplab global muammolar sabab boʻlayotgan global isish, iqlim oʻzgarishi, muzliklarning erishi, oʻsimlik qoplami oʻzgarishi, kuchli yomgʻirchilik yoki qurgʻoqchiliklar endilikda mahalliy muammo boʻlib qolmay, balki global tahdidga aylangan. Bu esa, davlatlar oʻrtasidagi hamkorlikni zarur qiladi. Butun insoniyat uchun yashashga yaroqli kelajakni taʼminlash-har bir mamlakat uchun ustuvor vazifa boʻlishi kerak. Shu bois, odamlar ekologiyani himoya qilishda yanada masʼuliyatli boʻlishlari, qisqa muddatli manfaatlar yoʻlida tabiatga zarar yetkazishdan tiyilishlari zarur.

Atrof-muhit jadallashib borar ekan, iqlim oʻzgarishi, ozon qatlamining yemirilishi, turlarning yoʻqolishi, havo, suv va tuproqning ifloslanishi kabi ekologik muammolarning sabablari va oqibatlarini tushunish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turli biologik, fizik, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy xususiyatlar konva vaqt doirasida oʻzaro taʼsirda boʻlib, atrof-muhitni shakllantiradi. Ana shu omillarni maqsadli guruhlariga mos metodlar orqali anglash,

tushuntirish va ushbu yo'nalishdagi muammolarni hal etish atrof-muhit ta'limining asosiy mas'uliyatlaridan biridir [1].

Ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi insonning tabiatga doimiy aralashuvini kuchaytirib, insoniyat kelajagini xavf ostiga qo'ymoqda. Qonuniy choralar va jazolar joriy qilingan bo'lsa-da, ekologik muammolarni bartaraf etishdagi kutilgan natijalarga erishish oson emas. Bu muammolarni samarali hal etish uchun insonlarning atrof-muhitga bo'lgan qarashlarini o'zgartirish zarurdir. Faqat shunday o'zgarishlargina kelajak uchun samarali yechimlar ishlab chiqishga zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan, insonlarning ekologik qarashlarini shakllantirishning eng samarali vositasi – bu atrof-muhit ta'limidir.

Atrof-muhit ta'limi orqali ekologik ongga ega bo'lgan shaxslar ekologik muammolarni oldini olishda faol va samarali rol o'ynay oladilar. Ular muammolarning asl sabablarini tushunib, barqaror hayot uchun ekosentrik (eko-markazli) yondashuvning ahamiyatini anglaydilar [2,21].

Atrof-muhit ta'limi orqali inson markazidan ko'ra tabiatga ko'proq qiymat beradigan shaxslarni tarbiyalash zarurligiga ta'kidlanmoqda. Bu yondashuv tabiat va ekotizimlar inson ehtiyojlariga xizmat qiladigan obyektlar emas, balki o'zining ichki qadriyatlariga ega mavjudotlar sifatida qadrlanishi kerakligini ilgari suradi. Ekosentrizm tabiat va barcha tirik mavjudotlarni o'z-o'zidan qadrlidi deb biladi va inson manfaatlari tabiat muvozanati va ekotizim barqarorligidan ustun bo'lishi kerak emasligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv inson va tabiat o'rtasidagi munosabatni qayta aniqlash hamda tabiatni faqat inson uchun emas, balki u o'zi uchun ham asrash zarurligini ko'rsatadi. Insoniyatning muvozanat va mamnuniyatga erishmasdan texnologik rivojlanish ortidan quvishi – yashash joylarining torayishi, resurslarning kamayishi, tabiiy muvozanatning buzilishi va boshqa turli yo'qolishiga sabab bo'ldi. Bunga qarshi ekologik masalalarga e'tibor qaratgan mamlakatlar jamiyatni xabardor qilish, ijobiy va barqaror xulq-atvor o'zgarishlarini rag'batlantirish hamda ijtimoiy muammolar yechimida ishtirokni kuchaytirish maqsadida atrof-muhit ta'limi bo'yicha dasturlarni boshlab yubordilar.

Atrof-muhit ta'limi bu – atrof-muhit haqidagi bilim, ijobiy va barqaror xatti-harakatlar, qadriyatlar, shaxs va jamiyatni ekologik muammolarni anglash va hal qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar, tajriba va qat'iyat bilan qurollantirish jarayonidir. Keng ma'noda, bu ta'lim inson va tabiat o'rtasidagi munosabatni tushunishga qaratilgan bo'lib, to'g'ri munosabat shakllantirishni ko'zlaydi. Atrof-muhitni asrash, tabiat boshqaruvi, ekologik xavfsizlik, shaxsiy o'zgarishlar, mustaqil o'rganish, ekologik savodxonlik, shuningdek, inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir doiralarini ham o'z ichiga oladi [3,102].

Atrof-muhit ta'limining asosiy maqsadi-shaxslarni tabiat haqida xabardor qilish, inson faoliyatining salbiy ta'sirlarini tushuntirish va kerakli xatti-harakatlarni shakllantirishdir. Bu jarayon kognitiv (bilim), hissiy va amaliy malakalarni o'z ichiga oladi. Ana shu nuqtada, atrof-muhit ta'limi insonlarga tabiatni to'la anglash, salbiy oqibatlarini tan olish va mos ijobiy xatti-harakatlar ko'rsatishda yordam berishi mumkinligi ta'kidlanadi. Hozirgi va kelajakdagi ekologik muammolarni hal qilish faqat inson va tabiat tizimlarining o'zaro bog'liqligini tushunadigan, ta'limli aholining shakllanishi bilan mumkin bo'ladi. Bu muammolarning yechimi ekologik tafakkur, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish salohiyati va ongli qarorlar qabul qilishni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim faoliyatlarini talab qiladi [4].

Ijtimoiy va texnologik o'zgarishlarning jadalligi, global ekologik inqirozlar, xomashyo ehtiyojining ortishi va sog'liq muammolari – atrof-muhit va tabiat tushunchalarining dolzarbligini oshirgan. Bu sharoitda ta'lim tizimi kelajak avlodni zamonaviy murakkabliklarga bardosh bera oladigan bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish shart. Ekologik savodxonlikka ega bo'lishni shakllantirishning birinchi qadam bu-jamiyatni atrof-muhitni muhofaza qilish zarurligi haqida xabardor qilish va befarqlikning oqibatlarini ko'rsatishdir. Atrof-muhit ta'limi shaxslar va guruhlarining tabiiy hayot tizimlarini, ularning inson faoliyatidan qanday ta'sirlanishini anglashga yordam beruvchi ta'lim yondashuvidir. Bu o'z navbatida, tabiatga nisbatan mas'uliyatli bo'lish, muhofaza qiluvchi harakatlarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Atrof-muhit ta'limi o'quvchilarni mavjud va kelajakdagi ekologik muammolarga javobgar bo'lish, yetakchilik, ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ongni rivojlantirish, shuningdek, muammoni hal qilish malakalari bilan qurollantirishga qaratilgan. Bu hayot davomida davom etadigan ta'lim turidir. O'quvchini atrof-muhit bilan bog'lanish, tushunish, bilim olish va keyingi integratsiya tizimlarini anglashga tayyorlaydi. [5]. Shuningdek, bu ta'lim ekologik muammolar haqida bilimga ega, ularning yechimini tushunadigan va harakat qilishga tayyor shaxslarni shakllantirishni maqsad qiladi. Asosiy e'tibor- shaxslarda ekologik ongni shakllantirish va bu orqali ekologik sezuvchanlik hamda barqaror rivojlanishga sadoqatni kuchaytirishdir. Bu sezuvchanlik muammolarni hal etishga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni yuzaga keltiradi.

Ekologik ta'lim barqarorlikka erishish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va ongni kelajak avlodga yetkazish vositasidir. Mavjud ekologik muammolar esa yanada kuchli ekologik sa'y-harakatlarni talab qilmoqda. Ta'lim muassasalari, mahalliy hokimiyatlar, NNTlar va korxonalar ekologik ta'limni samarali qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli barcha ishtirokchilar umumiy maqsad - barqarorlik sari harakat qilishlari zarur. Qisqa va uzoq muddatli ekologik va ijtimoiy muammolarni hal etishda ekologik ta'lim kuchli vositadir. U axborot olish, ko'nikmalarni rivojlantirish, munosabatlarni shakllantirish va harakat qilish jarayonlarini rag'batlantiradi. U shaxsga o'rganishni davom ettirish va ekologik mas'uliyatli fuqaro bo'lish rolini qabul qilish uchun zarur motivatsiyani beradi. [6].

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ekologik ta'lim – kelajak avlodga zarar ko'rgan tabiatni emas, balki yashashga yaroqli muhitni qoldirish vositasidir. Shu sababli har bir fuqaro o'z yashash joyidan boshlab butun Yer yuzida mavjud bo'lgan ekologik muammolar haqida xabardor qilinishi zarur. Barqaror rivojlanish va avlodlararo adolatni ustuvor qilgan shaxslar ekologik mas'uliyatli xatti-harakatlar namoyon etish ehtimoli yuqori bo'ladi. Bu xatti-harakatlar ekologik ta'lim, bilim, sezuvchanlik, qadriyatlar, tajriba va motivatsiyadan kuch oladi. Kelajak avlodga sog'lom muhit qoldirish uchun ekologik ong, xabardorlik, ijobiy munosabat va ekologik xatti-harakatlar ta'lim orqali shakllanishi shart. Shuning uchun ekologik ta'lim va ekologik faoliyatlar shaxsiy ongni shakllantirishda muhim boshlang'ich nuqtadir.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. UNEP International Environmental Education Programme Environmental Education Series 19. Retrieved from <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223>
2. Karataş, A. (2018). Çevreeğitiminintarihselkökenleri. R. Sever ve E. Yalçınkaya (Eds). *ÇevreEğitimi* içinde (ss.21-35). PegemAkademi.

3. National Environmental Education Advisory Council [NEEAC]. (2015). 2015 Report to the U.S. Environmental Protection Agency Administrator.
4. North American Association for Environmental Education [NAAEE]. (2022). Environmental Education Programs: Guidelines for Excellence. Retrieved from <https://eeepro.naaee.org/guideprograms>
5. Durmuş, E., Dölek, İ. & Kuruyer, D. (2021). Views on disasters and biologic disasters during Covid-19. *International Journal of Geography and Geography Education (IGGE)*, 44, 338-358. <https://doi.org/10.32003/igge.874704>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 8 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).